


## GANDBOLCHILARNI TAYYORLASHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI



*Abduyeva Sitorabonu Savriddin qizi  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashga o‘zining munosib xizmatlarini ko‘rsatayotgan, shuningdek, tayanch oliy ta’lim muassasasi sifatida Respublikamiz iqtisodiy va ijtimoiy sohasida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘layotgan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini o‘rganish, tahlil etish va tegishli xulosalarni bayon etish masalasi ham dolzarb sanaladi.

**Kalit so’zlar:** Jismoniy tarbiya ,sport, pedagogika, gandbol, ta’lim, tarbiya

Mustaqil O‘zbekistonning iqtisodiyot rivoji va uning milliy tafakkur uyg‘onishi bilan belgilanadi.

Pedagogika - ta’lim-tarbiya orqali jamiyatimizning tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti natijasida paydo bo‘lgan tabiiy jarayondir. Bu o‘rinda butun dunyo pedagoglari ta’lim va tarbiyaning rivojlanishi dastavval moddiy hayot, shu bilan birga ma’naviy qadriyatlар bilan belgilangani bejiz emas. Shuning uchun ham o‘zbek ta’lim-tarbiya tizimining keng qadamlari hozirgi ijtimoiy-siyosiy mafkura Bugungi iqtisodiy, ijtimoiy-pedagogik holatda vujudga kelgan ta’lim-tarbiya modeli o‘z navbatida jamiyatimiz hayotining barcha sohalariga katta ta’sir etmoqda. Pedagogika ta’lim-tarbiyaviy hodisalarini boshqa hodisa va voqealar, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti va aynan shu payt falsafiy dunyoqarashi bilan bog‘liq holda o‘rgatadi. Odamda g‘oya, tasavvur, bilim, odob-ahloq maqsadli ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘rina boshlaydi. Ta’lim-tarbiya o‘zi esa ijtimoiy-tarixiy sharoiti va ta’siri natijasida paydo bo‘ladi hamda ularga bog‘liq holda taraqqiy etadi. Shuning uchun ham hozirgi ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotining yutuqlari falsafiy tomondan ham buyuk milliy g‘oya va milliy mafkuraning mahsulidir.

Shu boisdan maqolani aynan mana shu masalaga qaratdik. Gандbolchilarni rivojlanishi, ularning ta’lim va tarbiyasining jismoniy tayyorgarliklari bilan o‘zaro bog‘liqligi bugungi kunda muhim muammolardan biri bo‘lib, u ko‘p munozaralarga sabab bo‘layotganligi sir emas. Professional gандbolchilarni tayyorlash, ularning texnik-taktik jihatdan rivojlantirish qiyin va murakkab jarayon, u ko‘plab ichki va tashqi ta’sirlar va omillar orqali ro‘yobga chiqadi. Yosh gандbolchilarni tayyorlash amaliyotidan ma’lumki, ularni psixologik, pedagogik, fiziologik jihatdan tayyorlash chidamkorlik, tezkorlik, taktik holatlar bilan uzviy bog‘langan. Haqiqatdan ham, odam

miyasi va tanasida bo‘layotgan psixologik va fiziologik jarayonlarni, ya’ni sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, tafakkur kabi jarayonlarining kechayotganini bilish uchun aynan shu pedagogik-psixologik belgilarga tayanadi.

Ma’lumki, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, lekin uning shakllanishi avvalo tug‘ma hususiyat va qobiliyatlariga, keyin oila va jamiyat maqsadlari va sharoitlariga bog‘liqdir. Shaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsni nafaqat pedagogik mahsuli, balki ma’lum ijtimoiy tuzumning mahsuli deb tushunishimiz kerak. Hozirgi jamiyatimizda yosh avlodni tarbiyalash demokratik, gumanistik xarakterga ega bo‘lgani sababli ta’lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni hamda tashkiliy shakllari shu davlat va jamiyatimiz maqsadlariga belgilanadi, kelajagimizni ravon qilish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik davri ta’lim-tarbiya ishlarining maqsad va mazmunini tamoman o‘zgartirdi. Uzlusiz ta’lim maqsadi mamlakat Konstitutsiyasi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko‘rsatilgan barkamol avlod, insonparvar va vatanparvar kishilar jamiyatini ko‘rish umumiyligi maqsaddan kelib chiqadi. Shu jumladan, oliy ta’lim shaxsni har tomonlama kamol toptirish, yuksak g‘oyali, chuqur ma’lumotli, kasbiga puxta ega, ma’naviy va jismoniy jihatdan yetuk qilib yetishtirish maqsadini ko‘zda tutadi va o‘z ishlarini xuddi shu nuqtai nazardan yo‘lga qo‘yadi. Shunda ijtimoiy fanlar, ya’ni O‘zbekiston tarixi, falsafa, iqtisodiyot, milliy mustaqillik g‘oyasi, madaniyatshunoslik kabi fanlar yosh avlodni ta’lim berish va tarbiyalash ishlari yangi huquqiy fuqarolik jamiyatni qurish vazifalariga qaratilgan va shu tariqasida pedagogika fanlari chambarchas bog‘liqdir.

O‘quv rejaga muvofiq pedagogik fanlar, ya’ni “Sport psixologiyasi”, “Sport pedagogikasi”, “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” kabi fanlar har bir oliy kasbiy ta’limni bitirgan sohasi bo‘yicha o‘qituvchilik qilishda, pedagoglik va murabbiylik amaliyotida o‘quvchilarni ta’lim-tarbiyaning vosita va metodlarini tanlashda, turli xil maktablarda, akademik litsey va kasb-xunar kollejlarda, oliy ta’lim muassasalarida kasb amaliy tayyorgarlikni amalga oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun bu pedagogika fanlariga oliy ta’lim muassasalarida alohida talab qo‘yiladi. Oliy o‘quv yurtlarida tarbiyalanayotgan talabalarning pedagogik mahoratini oshirishda va ularni hayotda qo‘llay olish bo‘yicha bular asosiy ixtisoslik fanlar qatorida pedagoglar tayyorlash tizimini ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport odamning jismoniy tarbiyasining tarkibiy qismi hamda muhim vositasidir. Bu ilm olish, mehnat, ma’rifiy-axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqligi hammamizga ma’lum. Jismoniy tarbiya va sport mazmuni o‘quvchi-talabalarning salomatligini mustahkamlash, ularning har tomonlama mohirligini o‘stirish, jismoniy va fiziologik sifatlarini shakllantirish, ish qobiliyatlarini oshirish, ozodalik qoidalariga ko‘nikish, shaxsiy jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, iroda,

tartib-intizom, jasurlik, kuch-quvvat, tezlik, aqlilik, ziyaraklik, chidamliliklarni kamol toptirishdir. Bu yo‘lda jismoniy tarbiya va sport yoshlar pedagogikasining muhim qismidan birini bajarib kelmoqda, chunki yoshlarimizning turmush tarzi, o‘qishi, mehnati va dam olishi mazmunli shakllanishini ta’minlaydi, jismoniy kamolotga olib boradi.

Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning mazmun-mohiyati va uslubiyatini taraqqiy etmay turib, o‘quvchilarga ta’lim berish dasturlarini tuzib bo‘lmaydi. Ta’lim-tarbiya bu bиринчи navbatda hayotiy tajribani bir avloddan keyingi avlodga taqdim etishdir. O‘zbek xalqining bu sohadagi tajribasi juda boy. Pedagogika fani ta’lim-tarbiyaga oid ota-bobolarimizning fikr va g‘oyalarni o‘zlashtirishga, xalq pedagogikasi manbalarini, milliy urf-odatlar va qadriyatlarini o‘rganishga ham xizmat qiladi. O‘zbek xalqining nihoyatda boy madaniy-ma’naviy merosi o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasida, kasbiy pedagogika uchun buzilmas poydevor bo‘lib o‘taydi. Ta’lim-tarbiyani, kasbiy pedagogikani o‘rganar ekanmiz, u juda qadimiylar jarayonga asoslanganligini, insoniyat butun hayoti davomida ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu jarayonda ajdodlarimiz, buyuk allomalarimiz tarbiyaviy ta’sirining samarali yo‘l usullari va manbalarini qidirib hayotga tadbiq qilganlar, buning natijasida o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash haqidagi g‘oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo‘la boshlagan.

Yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi jamiyatimiz taraqqiyotining muhim omilidir. Buning ijtimoiy funksiyasi avloddan-avlodga oilaviy, mexnat, ijtimoiy va siyosiy tajribani o‘tkazishi bilan yaqqol ko‘rinadi. Bu tajriba xalqning falsafiy dunyoqarashi va mentalitetini bilish, madaniyatli bo‘lish, ilm egallash, san’atga yaqin bo‘lish, ona til va adabiyotni mukammal o‘rganish, milliy g‘oyani yurakka qabul qilish, aqliy, ruhiy va jismoniy sog‘lomlikka intilish orqali va halq odob-axloq qoidalari bilan ifodalab beriladi. Pedagog-olimlar va amaliyotchilar o‘z ishlarini mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni, yangi g‘oyalarni, bironta metod, usul, vosita, mashq, o‘yin yoki ularning majmuasi samarasini, qaysi bir yoki bir guruh o‘quvchi-talabalarning bilim, saviya, hulq-atvorlarini o‘rganishda, umuman olganda ta’lim-tarbiya mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda pedagogikaning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o‘rganadi.

### Adabiyotlar

1. Abduyeva S. THE STUDY OF PHYSICAL CULTURE IN CENTRAL ASIA IN THE 16th AND 18th CENTURIES AS A TOPICAL ISSUE // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
2. Abduyeva S. When planning the training of handball teams of university students, take into account the functional status of athletes by their temperament types // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
3. Abduyeva S. Psychological aspects of training young handball players // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

4. Abduyeva S. CHARACTERISTICS OF HEALTH STRENGTHENING // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
5. Abduyeva S. AGE-SPECIFIC DYNAMICS OF ATTACK AND DEFENSE RESPONSE SPEED IN HANDBALL PLAYERS // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
6. Karomatovich I. A., Navruzovna S. G. Technical and Tactical Training in Training Young Players // Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 132-136.
7. Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL FEATURES OF SPORTS ACTIVITIES OF HANDBALL PLAYERS // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 30-34..
8. Karomatovich I. A. et al. Assessment of Offensive and Defensive Technical-Tactical Actions of Handball Players in the Competition // Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 112-116.
9. Karomatovich I. A. Conducting Sports Holidays in Pre-School and Primary Educational Institutions // Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 153-157.
10. Fazliddinov F. Optimization of Football Workers' Training // Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
11. Fazliddinov F. Types of competition loads in football // Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
13. Rasulovna S. N. Ways to Improve the Efficiency of Technical and Tactical Actions Performed by Skilled Players during the Competition // Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 196-206.
14. Собирова М. Р., Собирова Н. Р. ПСИХОЛОГИЯ ЗДОРОВЬЯ: ПОНЯТИЯ И ТЕОРИЯ // Психология XXI столетия. – С. 173-175.
15. Rasulovna S. N., Hamzayevich I. S. JISMONIY TARBIYA-SOG'LOM JAMIYAT POYDEVORI: 10.53885/edinres. 2022.32. 34.107 Sabirova Nasiba Rasulovna Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o 'qituvchisi Ismoilov Shahzod Hamzayevich Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti talabasi // Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 854-856.
16. Rasulovna S. N., Nusratilloyevich Y. J. Possibilities of using the tools used in teaching short-distance running techniques // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 210-222.
- 17 Asqarovich R. A. YOSH GANDBOLCHILARDA KUZATISH VA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH // INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 148-153.
18. Rustamov A. A. Development Chronology of Three-Level Sports Competitions in the System of Continuous Education in Uzbekistan // Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 34-39.
19. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. Academicia: An International Multidisciplinary Research

Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01410. X.

20. УР Хайдаров Обоснование влияния правильной постановки стопы на увеличение скорости бега: УР Хайдаров, АУ Эргашев, РХ Кадиров //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1. – С. 65-74.

21. Хайдаров У. Р. ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ОБОСНОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ СКОРОСТНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СПРИНТЕРОВ УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНОЙ ГРУППЫ: 10.53885/edinres. 2021.59. 33.029 Хайдаров Улугбек Рустамович Магистрант Бухарского государственного университета Научный руководитель: Кадиров Рашид Хамидович Профессор кафедры Теории и методики физической культуры. п. н. Бухарского государственного университета //Научно-практическая конференция. – 2021.

22. Rasulovna S. N., Rasulovna S. M. Advantages of Using Action Games in Teaching the Sport of Basketball //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 44-48.

23. Ilxomovich M. F. FUTBOL O'YINIDA TO'R BILAN HARAKAT QILISH TEKNIKASI VA TAKTIKASINI ISHLAB CHIQISH ASOSLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 17. – №. 3. – С. 88-91.

24. Ilxomovich M. F. THE BASICS OF DEVELOPING TECHNIQUES AND TACTICS OF MOVING WITH THE BALL IN A FOOTBALL GAME //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 17. – №. 3. – С. 84-87.

25. Ilxomovich M. F. FEATURES OF THE PROCESS OF TRAINING YOUNG PLAYERS IN BEGINNER TRAINING GROUPS //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 17. – №. 3. – С. 97-101.

26. Ilxomovich M. F. YOSH FUTBOLCHILARNI TEHNİK VA TAKTİK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 97-102.

27. Фатуллаева М. А., Дустов Б. А. МОТИВАЦИЯ СТУДЕНТОВ К СПОРТИВНЫМ ЗАНЯТИЯМ В РАМКАХ ЗАНЯТИЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ //Физическая культура. Рекреация. Спорт. – 2022. – С. 504-511.

28. Фатуллаева М. А. СПЕЦИФИКА ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ, ВЫПОЛНЯЕМЫХ ПРЫЖКОМ, В ПРОЦЕССЕ ИГРЫ В ВОЛЕЙБОЛ //Физическая культура. Рекреация. Спорт. – 2022. – С. 499-503.